

## SO‘Z BOSHI

Ma'lumki, insonlarning ishlab chiqarish faoliyati ta'sirida tabiiy landshaftlarni antropogen landshaftlarga aylanishi va o'zgarishi, ya'ni texnogenez texnosferani paydo bo'lishiga va uni zichligini keskin ortishiga olib keldi. Texnosfera - bu insonlar jamiyati tomonidan tabiiy er sferalarini (litosfera, atmosfera, gidrosfera va biosfera) - geosferalarni insonlar jamoasi tomonidan o'zgartirish evaziga yaratilgan sun'iy sferadir.

Texnosfera insonlarga qaratilgan (antropotsentrik) va ekologik (biosferaga tahdid qiluvchi) xavflar sferasidir. O'z navbatida, texnosferaning ta'sirlari oqibatida biosferada sodir bo'ladigan o'zgarishlar, inson uchun potensial xavf sifatida yuzaga chiqadi. Shu alfozda texnogenez inson faoliyati sharoitidagi texnosferadagi noqulayliklarni chuqurlashtiradi. Inson xavfsizligini ta'minlash va biosferaga zararli ta'sirlarni kamaytirish uchun preventiv (oldini olish) va himoya chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurati paydo bo'ladi. Shuning uchun biosfera va texnosferadagi xavflarni, ularni sabablarini, insonlar va aholi faoliyat ob'ektlarida «xavflar maydoni» shakllanib borishini, xavfli hodisalarni, jarayonlarni va omillarni o'zaro ta'siri, inson mehnat faoliyati xavfsizligi, ushbu tizimda u (inson) ning o'рни va ishtiroki bir-biriga chambarchas bog'liq makon va zamonda kechishini hisobga olish o'ta muhimdir.

Mavjud texnosfera sharoitlarida odamlar sog'lom va uzoq umr ko'rishlari uchun, o'zlarini hayot faoliyati mahsuli - texnosfera xavflarini, texnosferani ishlab chiqarish sektoridagi xavflarini (mehnat muhofazasi) identifikatsiyalash va bartaraf etishga qaratilgan faoliyat olib borishi o'ta dolzarb va muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, hayot faoliyati xavfsizligi sohasidagi siyosatni shakllantirishda va mamlakatni uzoq muddatga mo'ljallangan rivojlantirish strategiyasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan global chaqiriqlarga, texnosfera xavflarini va ularni yuzaga chiqishi sabablarini ma'lum ehtimollikda bartaraf etishga e'tibor qaratilishi lozim.